

KUZGI BUG'DOY NAVLARIDA OPTIMAL EKISH ME'YORINI ANIQLASH BO'YICHA MAHALLIY VA XORIJIY TADQIQOTLAR TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18796333>

Allanazarov B.J.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali talabalrai:*

**Abdirimov Jasurbek, Ergashev Diyorbek, Nurniyozov Madiyor,
Jubanishova Aynura**

Annotatsiya

Grattsiya navining boshog'i uzunroq bo'lib, bitta boshqoq donning og'irligi va hosildorligi yuqori ekanligi bu yuqoridagi navlarga har bir gektar maydonga 25-30 tonna organik o'g'it va ma'danli o'g'itlar normasi $N_{200}P_{120}K_{90}$ kg atrofida berilsa, to'g'ri agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida o'tkazilsa 100 s.ga ortiq don hosil olish mumkinligi tajriba natijalari asosida aniqlandi.

Kalit so'zlar

Sifati, don, hosili, organik o'g'it, ma'danli o'g'it, to'planish, naychalash, sug'orish, suspenziya, mikroelement

Kuzgi bug'doy navlaridan yuqori va sifatli don hosilini olish uchun barcha agrotexnik tadbirlar urug'ning ekish me'yorini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzgi bug'doy navlarini ekish me'yorlarini o'rganish, respublika ilmiy muassasalarida va xorijda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirda davom etmoqda.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan yetishtiriladigan hosil salmog'i va uning sifati, tuproq iqlim sharoiti, o'tmishdosh ekin turi, navning biologik va xo'jalik xususiyatlari, urug'likning ekinboplik sifati hamda qo'llaniladigan agrotexnika darajasiga bog'liq. Kuzgi bug'doydan yuqori sifatli, navdor urug'lik yetishtirish to'g'risidagi adabiy ma'lumotlarni respublika matbuotida hamda xorijiy materiallarning adabiyotlarida uchratish mumkin.

Shuni aytish kerakki, bugungi kunga Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq xo'jaligida yaratilayotgan yangi navlarning hosiliga, ko'chat me'yorining va poyalar sonining ortishiga ta'siri to'liq o'rganilmagan. Dunyo adabiyotlarida don hosili va sifatiga oziqlanish maydonining ta'siri to'g'risida ko'plab ma'lumotlar to'plangan bo'lishiga qaramasdan ekish me'yori va uning yuqori hosil olishdagi ta'siri, doimiy ravishda o'rganishga molikdir. Shundan kelib chiqib O'zbekistondagi turli tuproq iqlim zonalarida sohaga oid ilmiy izlanishlar

o'tkazilmoqda. Buning Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida ham bu ishlarni amalga oshirish davr talabi hisoblanadi. Ekish me'yoriga bo'lgan asosiy talab ma'lum er maydonini maqbul ko'chat qalinligi va mahsuldor poyalar bilan ta'minlashdan iborat.

Lavronov G.A. ning fikriga ko'ra, qurg'oqchil rayonlarda belgilangan u yoki bu ekish me'yori garchi tuproq namligiga qarab aniqlanadigan bo'lsa-da, aslida bir qator shart-sharoitlarga ham bog'liq. Masalan, dalani ut bosish darajasi, tuproq unumdorligi, dalaning qay darajada qiyaligi va bu qiyalikning qaysi tomonga qaraganligi, ekish usuli, urug'lik sifati ana shular jumlasidandir. Xuddi shunday fikrni Kasaeva K.A ham tasdiqlagan holda ularning fikricha kuzgi bug'doy kech ekilganda uning vegetatsiya davri qisqaradi, natijada tinim fazasi to'liq tugallanmaydi. Shuning uchun ekish me'yorini ekish muddatlari bilan bog'liq holda belgilash lozim.

Ko'pgina adabiyotlardan keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinishicha, yirik urug'ning dala sharoitida unib chiqish darajasi ortiq bo'ladi, bunday urug'dan baquvvat ko'chat olinadi va u yaxshi tuplaydi, serhosil bo'ladi, binobarin oziqlanish maydonini birmuncha ortiqroq talab qiladi.

Ekish me'yorini aniqlashda ekish muddatini ham hisobga olish lozim. Kechroq ekilganda ekish me'yorini oshirish lozim, chunki qalin ekin tez o'sadi va rivojlanadi hamda tez pishadi, natijada janubiy rayonlarda garmiselga (issiq shamol ta'siriga), shimoliy rayonlarda esa sovuqlarga uchramaydi.

Ko'pchilik olimlar ekish me'yorini belgilaganda asosan ekish muddatlarini hisobga oladi. Agar erta ekilsa, 3 mln. donaga, optimal muddat bo'lsa 4,0 - 4,5 mln. dona/ga, agar kechki muddatda ekilsa, 6 mln.dona/ga bo'lishi kerak.

Kodanov I.M. va Udachin R.A. fikricha keyingi paytlarda donda oqsil miqdori kamayib borayotganligi, buning sababi esa tuproqda o'simlik o'zlashtiradigan azot turlarining kamayganligidir.

Sozinov A.A, Jmela G.P. yuqori dozadagi azotning don sifatiga yomon ta'sirining sababi, hamma organik moddalarni vegetativ massa hosil bo'lishiga sarflanishi sababli deb ko'rsatadi.

Donning sifati ekish me'yori, muddati va azotli o'g'it miqdoriga bog'liq. Ba'zi olimlarning fikricha esa ekish me'yorining oshib borishi bilan urug'larning unuvchanligi ham oshadi. Optimal ekish me'yorida tuplanish hisobiga mahsuldor poyalar hosil qilish mumkin. Bunday holda o'simliklarni yotib qolishiga chidamliligi oshadi, hosildorlik va hosil sifati yuqori bo'ladi.

Olimlarning ko'rsatishicha, kuchli tuplanishni oldini olishda agrotexnik usullardan ekish me'yori, muddatlari va o'g'itlardan foydalanish va boshqa usullardan foydalanish mumkin.

Adin'yaev E.D. kursatishicha pakana bo'yli bug'doy uchun yuqori ekish me'yori 240 kg/ga, katta miqdorda berilgan mineral o'g'itlar $N_{120}P_{120}K_{120}$ kg/ga ta'sirida eng yuqori hosil olindi.

Bobomirzaev P. tajribalarida ko'rsatishicha, gektariga 4 mln. unuvchan urug' sarflanib oktyabrda ekilgan "Aleksandrovka" navidan eng yuqori 59,1 c/ga don hosili olingan. Ekish me'yorining bir gektarga 4 mln., ya'ni 200 kg urug'dan ko'p bo'lishi ham don hosildorligini pasayishga olib keladi. Ekish muddatlari kechiktirilib 11-noyabrda bir gektariga 6 mln. dona unuvchan urug' ekilganda don hosili eng yuqorisi 49,6 c/ga ni tashkil etdi.

Xalilov N., Bobomirzaev G., Daminov S. izlanishlarida Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida makaron, vermishel, lapsha tayyorlash uchun yaroqli, yuqori sifatli don etishtirish imkoniyatini beradigan qattiq bug'doyning Aleksandrovka, Baxt, Makuz-3, Istiqlol navlarini ekish o'ta foydali, ular gektaridan 60-70 sentner don hosili beradilar deb qayd qiladi. Mualliflar eng maqbul me'yor gektariga 4,0 mln. dona unuvchan urug' ekanligini aniqladilar. Bunda Baxt, Aleksandrovka navlari gektaridan 54,8-59,1 sentnerdan hosil berganligini qayd qiladilar.

Atabaeva X. o'tkazilgan tajribalarida O'zbekiston sug'oriladigan erlari uchun eng muqobil qattiq bug'doy navini aniqlashga qaratilgan ilmiy ish olib borgan. Tajribada bug'doyning Baxt, Aliy Parus, Nasimi, Marvarid navlari o'rganildi. 180-200 kg/ga urug' ekildi, shulardan eng yuqori hosil Baxt navidan (61 c/ga) eng kam hosil Nasimi (32 c/ga) navidan olinganligi qayd etilgan.

Germaniyaning Bernburg-Xed Mersleben donchilik institutida kuzgi bug'doy, gektariga 6,5 mln. dona urug' sarflab ekilganda don hosildorligi gektariga 67,8 sentnerni tashkil qilgan. Galla I.I.B tajriba natijalari quyidagicha bo'lgan, ya'ni kuzgi bug'doyning Intensivnaya navi 15-20-oktyabrda gektariga 4,0 mln. dona urug' miqdorda ekilib, mineral o'g'itlar qo'llanilmaganda gektaridan 36,5 c va mineral o'g'itlar qo'llanilganda esa 40,1-60,2 c don hosili yetishtirilgan.

Toshkent Davlat agrar universiteti tajriba stansiyasida o'tkazilgan tajriba natijalariga qaraganda bug'doyning Sanzar-4 navi bir gektar erga 4,0 mln. dona urug' ekilganda 47,2 c/ga, 5,0 mln. dona urug' ekilganda 53,6 c/ga hosil olingan. Sanzar- 6 navida bu ko'rsatkichlar 52,6 c/ga, 64,3 c/ga, Unumli bug'doy navida 44,6 c/ga va 56,5 c/ga va Intevsivnaya navida 47 c/ga, 57,4 c/ga dan hosil olingan.

Xalilov N. Zarafshon vohasida kuzgi bug'doyni Bezostaya-1 navini 3,5 mln./ga, yarim kuzgi navlarni 4,5 mln./ga va ekish muddati kechiktirilganda esa 6,0 mln./ga urug' ekishni tavsiya etadi. Demak, kuzgi bug'doyni ekish me'yori iqlim va tuproq sharoitiga bog'liq.

Samarqand Qishloq hujraligi instituti olimlari ma'lumotlariga ko'ra biologik kuzgi bug'doy Bezostaya- 1, erta va optimal muddatlarda ekilganda gektariga 3,0 mln. unuvchan urug' (120 kg/ga) intensiv tipdagi unumli bug'doy Sanzar-8, Skifyanka, Yuna navlari 4,5 mln. unuvchan urug'larga (180 kg/ga) hisobida ekiladi. Ekish optimal muddatlardan kechiksa (noyabr) ekish me'yori gektariga 6 mln. unuvchan (240 kg/ga) urug' oshiriladi.

Yuqoridagi o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, kuzgi bug'doy ekish me'yorini to'g'ri belgilashda uni yetishtirish uchun zarur bo'ladigan barcha agrotexnik tadbirlarning ma'lum ta'siri bor yoki shu tadbirlarga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, tuproq-iqlim sharoiti, joyning geografik holati va joylashuvi, urug'ning sifati, tuproq turi, nav, ekish muddati, bularning barchasi kuzgi bug'doyni ekish me'yorini belgilaydi.

Davlat standarti bo'yicha boshqoli don ekinlari urug'lik materiali uch sinfga bo'linadi. Ekish uchun tozaligi va unuvchanligi I va II sinf talabiga javob beradigan urug'likdan foydalanish mumkin. Urug'lik maydonlari uchun esa faqat I-sinfga xos urug'lik ekiladi. Davlat standarti bo'yicha barcha donli ekinlarda I-sinf urug'larida 1 foiz, II-sinf urug'likdagi aralashmalarda, urug' og'irligiga nisbatan 1,5-3 foizdan oshmasligi shart. I sinf uchun urug' unuvchanligi 95 foiz, II sinf uchun esa 90 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Sozinov A.A. kabi olimning fikricha, donning muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri kleykovina majmuidir. Don tarkibidagi kleykovina miqdori bevosita oqsil miqdoriga bog'liq. Agrotexnik tadbirlar ta'sirida don sifatini yaxshilash jarayonida asosiy e'tibor uning tarkibida oqsil miqdorini oshirishga qaratiladi.

A.Eshquvatov, T.Quliev, H. Qushiev va N.Japaqovlar (2004) bergan ma'lumotda 1m² maydonga ekiladigan urug' miqdorining ortishi bilan (200, 500, 700 donaga) oziqlanish maydoni kamayishi boshqda shakllangan don miqdori va don og'irligiga salbiy ta'sir etgan. V.Korolenko (1964) unumdorligi va namligi yuqori tuproqli erlarda urug' ekish me'yorini biroz kamaytirishni tavsiya etgan.

G.A.Lavronov (1969) ning fikricha qurg'oqchilik mintaqalarida ham ekish me'yori tuproq namligiga qarab belgilansa-da, undan tashqari ekish me'yorini belgilashda tuproq unumdorligi, dalaning o't bosish darajasi, ernig qiyaligi, ekish usuli va urug'lik sifatini hisobga olish kerak.

V.N.Luk'yanenko (1980) ning yozishicha, turli xil bug'doy navlarining ekish me'yori turlicha bo'ladi. Z.Umarov, X.Atabaeva va A.Alimov (1994) lar tomonidan o'tkazilgan tajribalarda O'zbekistonning sug'oriladigan yer sharoitida qattiq bug'doyning Baxt, Aliy Parus, Nasimiy, Marvarid navlari gektariga 180-200 kg dan urug' ekilib o'rganilganda eng yuqori don hosili Baxt navidan 61,0 c/ga va Nasimiydan 31,0 c/ga olingan.

Samarqand viloyati sharoitida N.X.Xalilov, T.X.Xo'jaqulov, T.S.Musaev (1997) lar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida Bezostaya-1 navini erta va maqbul muddatlarda gektariga 3,0 mln. dona unuvchan urug' (120 kg/ga), unumli bug'doy, Sanzar -8, Skifyanka, Yuna navlarini gektariga 4.5 mln dona unuvchan urug' (180 kg. ga) hisobida ekish tavsiya qilingan.

S.Bahromov (1996)-Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlarida kuzgi bug'doyni ekish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazib urug' me'yori 150, 200, 250 kg miqdorida urug' sarfi o'rganilgan va intensiv navni gektar hisobiga 200 kg/ga miqdorda ekishni tavsiya etgan.

G.Qurbonov (2001) mamlakatimizning Toshkent, Qashqadaryo, Samarqand va Andijon viloyatlarida kuzgi bug'doyni ekish me'yorini aniqlash bo'yicha bir qator tajribalar natijalarini tahlil qilib, urtacha ekish me'yorini 200-250kg/ga miqdoriga to'g'ri keladi deb xulosa qilgan.

G.Otaboev (1995) sug'oriladigan maydonlarda 1m² maydondagi ko'chatlar soni 350-400 dona, lalmi erlarda esa 180-200 tupdan kam bo'lmasligini shunda o'simliklarning tuplanish jarayoni yaxshi o'tadi degan fikrni bildirgan.

Z.Jumaboev, B.Azizov, I.Sulaymonovlar (2000) kuzgi bug'doyning ekish me'yori va muddatini o'rganib, Andijon viloyati sharoitida tajribalar o'tkazib, tajribada uch xil 3,5-4,5-5,5 mln/ga unuvchan urug' me'yori oktyabr oyining I-dekadasi, II-dekasi va noyabr oyning I-dekadasi muddatlarida ekib, kuzgi bug'doy navlari misolida oktyabr oyning (I-dekadasi) boshlarida 3,5 mln/ga (II-dekada) o'rtalarida 4,5 mln/ga va noyabr oyida ekilganda 5,5 mln/ga urug' ekishni tavsiya qilishgan.

A.Iminov, B.Holiqovlar (2003) Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlarida kuzgi bug'doyning maqbul ko'chat qalinligini hosil qilish uchun 225 kg urug' sepish zarurligini ilmiy xulosa qilganlar. Bu me'yor tipik bo'z tuproqlarda boshqa o'rganilgan me'yorlarga nisbatan yuqori hosil olishni ta'minlagan. A.Ilyosov, R.Tillaevlarning (2003) Buxora viloyati tuproq va iqlim sharoitida kuzgi bug'doyning o'sish va rivojlanishi uchun maqbul sharoitda gektariga 200 kg/ga urug' ekilgan bo'lib, yuqori don hosili yig'ib olingan.

G.Gaybullaev, SamQXI, aspiranti (ma'lumotiga ko'ra 2009yil) Zarafshon voxasi sharoitida sug'oriladigan erlarda kuzgi bug'doy intevsiv tipidagi "Umanka" navi uchun yuqori xosid va sifatli urug' olishda ekish me'yori 4.5 mln. unuvchan urug' /ga va o'g'it me'yori N180, P135, K 90 kg/ga. Qo'llash ijobiy samara berish bir qatorda g'allachilikda yuqori iqtisodiy rentabellikka erishishni ta'minlaydi.

O. Yoqibjonov q.x.f.d. (ma'lumotiga kura 2007yil) 3 yillik dala tajribalari asosida Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida "chillaki" navidan yuqori don hosili etishtirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak. Navni

1-10 oktabrda 1 ga hisobiga 200 kg unuvchan urug' sarflab ekish maqsadga muvofiq, ekish me'yorini 250 kg/ga 30- oktabrda urug'i ekilganda esa 300 kg/ga gacha qilib belgilash lozim.

D. Ubaydullaeva, QMII (ma'lumotiga ko'ra 2008-yil) Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari mintaqasi sharoitida Paluvchanka navidan mo'l va sifatli va arzon don hosilini yetishtirishning samarali usullaridan biri gung fondi mineral o'g'itlarining me'yor va nisbatlari oshirilishi bilan bog'liq bo'lib 30 t/ga. Gung fondida $N_{210}P_{110}K_{70}$ kg/ga. qo'llanilganda sof foyda 274100 so'm/ga rentabellik 67.7 % ni tashkil etadi.

N. Najmidinov (ma'lumotiga ko'ra 2004-yil) hosildorlik bo'yicha olingan ma'lumotlarning ko'rsatishicha eng yuqori don hosili 62.1 c/ga. Urg'lar 25-sentyabrda 250 kg/ga me'yorda ekilganda eng kami esa 25-oktyabrda 175kg/ga me'yorda ekilganda 252.1 c/ga olinadi. 25-sentyabr va 25-oktyabrda ekilganda bir xil ekay me'yorlarda olingan hosil o'rtasidagi farq 4.7-5.7 c/gani tashkil qiladi.

N.Xalilov, P.Bobomirzaev (ma'lumotiga ko'ra 2007-yil) ekish me'yorlarini oshirish bilan kleykovina miqdori kamayganligi qayd etildi. Ekish me'yorini ga 2 mln.dan 3mln.gacha oshirib borishi bilan ga hisobiga olinadigan oqsil va kleykovina miqdori hamortib boradi. - P.Bobomirzaev (1997) tadqiqotlarida qattiq bug'doyning Aleksandrovka navi gektariga 4 mln dona (200 kg) urug' oktyabrda ekilganda hosildorlik 59.1 c.ga ni, 11-noyabrda 6 mln dona urug' ekilganda hosildorlik 49.6 c.ga ni tashkil etgan. Aleksandrovka navini gektariga 4 mln dona (200 kg) dan ekish tavsiya etilgan. N.Xalilov (1994) Zarofshon voxasida kuzgi bug'doy Bezostaya 1 navni gektariga 3,5 mln dona duvarak navlarni 4,5 mln dona ekish kechikkanda 6 mln dona urug' ekishni tavsiya qilgan.

Xulosa:

1. Ekish uchun tozaligi va unuvchanligi I va II sinf talabiga javob beradigan urug'likdan foydalanish mumkin. Urug'lik maydonlari uchun esa faqat I-sinfga xos urug'lik ekiladi. Davlat standarti bo'yicha barcha donli ekinlarda I-sinf urug'larida 1 foiz, II-sinf urug'likdagi aralashmalarda, urug' og'irligiga nisbatan 1,5-3 foizdan oshmasligi shart. I sinf uchun urug' unuvchanligi 95 foiz, II sinf uchun esa 90 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

2. Sug'oriladigan maydonlarda 1m² maydondagi ko'chatlar soni 350-400 dona, lalmi erlarda esa 180-200 tupdan kam bo'lmasligini shunda o'simliklarning tuplanish jarayoni yaxshi o'tadi degan fikrni bildirgan.

3. Ekish me'yorini ga 2 mln.dan 3mln.gacha oshirib borishi bilan ga hisobiga olinadigan oqsil va kleykovina miqdori hamortib boradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Lukov M.K. Uslubiy qo'llanma // Samarqand 2011. B. 7-8.
2. Lukov M.K. Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi. // Lekciyalar kursi, Samarqand. 2012. B.11-12.
3. Ostonaqulov T.E., Xalilov N.X., Lukov M.K, Sanaev S.T. Takroriy ekinlar farovonlik manbai. // Qo'llanma Samarqand 2017. B. 54-56.
4. Oripov R., Xalilov N. // O'simlikshunoslik. Toshkent. 2006. 398-bet.
5. Tursunov S. O'simlikshunoslik // darslik 339 b.
6. Xudayqulov J.B., Atabaevlar X.N. Kungaboqar yetishtirish // O'quv qo'llanma 2021 yil 21-22-bet.
7. Shodmonov X.M, Asqarov X.X. Uslubiy ko'rsatma Farg'ona 2011. 8-b.